

**IBRATNING „SHIKOYATI ZAMONA“ ASARI BADIY TALQINI**

Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi,  
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti,  
Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna  
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Is’hoqxon Ibratning ma’rifatparvarlikka oid qarashlari, o‘z zamonasi va zamondoshlaridan shikoyat tarzida yozilgan “Shikoyati zamona” asari tahlili berilgan. Tahlil jarayonida ijodkor falak kishilarning boshiga turfa savdolarni solayotgani, zamona kimsalari ma’siyat tomon yurayotganligi, shu taxlit davom etadigan bo‘lsa, musulmonchilikdan ham mahrum bo‘lishi bayon etiladi. Baytlarda nido, tazod, tanosub san’atlaridan ustalik bilan foydalanilgani tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Is’hoqxon Ibrat, she’riyat, badiiy talqin, „Shikoyati zamona“ asari, she’riy san’atlar, aknun, ma’siyat.

**Аннотация:** В данной статье дан анализ взглядов Исаакхана Ибрата на просветительство, в „Шикояти замона“, написанной в форме жалобы на свое время и современников, утверждается, что если он это сделает, то он также потеряет свой мусульманский статус. Анализируется, что в стихах умело используются искусства восклицания, тазада, пропорции.

**Ключевые слова:** Исаакхан Ибрат, лирика, художественная интерпретация, Работа „Шикояти замона“, поэтическое искусство, сейчас, грех.

**Annotation:** This article provides an analysis of Ishaqkhan Ibrat’s views on enlightenment, „Shikoyati zamona“ written in the form of a complaint against his time and contemporaries. It is stated that if he does, he will also lose his Muslim status. It is analyzed that the arts of exclamation, tazad, and proportion are skillfully used in the verses.

**Key words:** Ishaqkhan Ibrat, lyrics, artistic interpretation, The work “Shikoyati Zamona”, poetic arts, now, sin.

Adabiyotimiz tarixida jadidchilik davri o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davrda jadid namoyandalarining barchasi xalqni ma’rifatli, ilmli qilish uchun bir qator ishlarni amalga oshirdilar.

Xususan, adibning “Shikoyati zamona” asari xuddi shu mavzuda yozilgan. Biroq mazkur asar boshqa ijodkorlar singari ilm o‘rganish, yangiliklar bilan tanishish, bolalarini maktabga berib savodli qilishdan ko‘ra o‘tkinchi hoy-u havvaslar, bekorchi narsalar uchun vaqt ajratayotgan kimsalardan emas, balki keraksiz va ortiqcha mashg‘ulotlarni deb Haq yo‘lidan chiqayotgan, Olloh buyurgan ishlarni bajarmayotgan insonlardan shikoyat tarzida yaratilgan. To‘g‘ri, Ibrat hayoti va ijodiyotiga oid

ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida unga nisbatan „din va jamiyat arbobi“ deya ta'rif berilganligining ham guvohi bo'lamiz, qolaversa, adib o'n yil davomida qozi lavozimida ham faoliyat yuritgan, bundan ko'rinadiki, shoir diniy ilmi yuqori qorilardan bo'lgan. Shu sababli ham zamondoshlaridan shikoyat ayni shu yo'sinda yozilgan bo'lsa ajab emas.

*Ey qalam, ayla bir hikoyat,  
Bu zamona ahlidin shikoyat.  
Qandog' falak kajrav o'ldi aknun,  
Ko'p turfa jafoni soldi gardun.  
Yurdi rahi ma'siyatga mardum,  
Oyini musulmonlig' ayladi gum. [5:46].*

Mazkur parchada izohlanishi lozim bo'lgan so'zlar: **aknun** – *endi, shu vaqt, shu lahza*; **ma'siyat** – *gunoh*; **gum** – *yo'qolish, yo'ldan olish* [2:48]. Birinchi baytda shoir qalamga murojaat etib, „bu zamon ahlidan shikoyat“ etishini so'raydi. Chunki adib o'zining „Mezon uz-zamon“ asarida: „*Savt ila aytilsa, bir samo' eshitub tamom bo'lur, har bir ahli savod ko'rub o'qusa, amri ma'ruf bo'ludur. Biz qilib turg'an xizmat keyingi asrlarga ham xizmat etar umidinda bo'lub qalam yurguzduk...*“ [3:160-161] deydi, ya'ni biror ma'lumot og'izda aytilsa, tez unutiladi, yozib qoldirilsa, asrlarga xizmat qilishi mumkinligini ta'riflaydi. Shu sababli ham muallif qalamga murojaat etadi.

Keyingi baytda go'yoki falakning teskari aylanishi natijasida dunyo „turfa jafolarni“ kishilarning boshiga solayotganini, zamona kimsalari ma'siyat tomon yurayotganligi, ya'ni tobora yomon ishlarga qo'l urib, gunohga botayotganligini, shu taxlit davom etadigan bo'lsa, musulmonchilikdan ham mahrum bo'lishini bayon etadi. Baytlarda nido, tazod, tanosub [4:17-18] san'atlaridan ustalik bilan foydalanadi.

*Jon erdi amonat ushbu tanda,  
Erduk Xudog'a bovujud banda.  
Jon vahmini qilmayin hamisha,  
Qilduk mudom gunohi pasha. [5:46].*

Ushbu baytlarda jonning bu tanada omonat ekanligini, inson ich-u tashi ila Ollohga banda (qul) ekanligini, insonlarning, xuddiki, o'limni unutmagan mudom gunohga qo'l urayotganligini, Haqning deganlariga rioya etmasdan, shariat ahkomlarini-da poymol etayotganligini uqtirib, bu kunda kimning puli ko'p, obro'yi yuksak bo'lsa, har joyda ishi hal ekanligini ta'kidlab, tanosub, iyhom, tashxis [4:8-17] san'atlari mahorat bilan qo'llaydi. Keyingi baytlarda ulamoning xalq orasida mavqeyi baland emasligi, to'y-u bazm, azada boyni yuqorida, izzat-ikromda o'tirishini, amaldor-u bayonlarning barchasi dimog'i ko'tarilib, kibrlanib ketganligini, qayerga borsa-da, ularning istaklariga qarashlari, hurmatlarini joyiga qo'yishlari, „doim nasibasi chopon“ ekanligini ta'riflaydi:

*Ulamoni yo'qtur e'tibori,  
To'y-u azoda boy yuqori.  
Borganda qayong'a shodmondur,  
Doim ani nasibasi chofondur [5:46-47].*

Mazkur baytda shoir tazod, tamsil, tashxis, tanosub [4:7,8,17,18] san'atlaridan o'rinli foydalangan. Shundan so'ng insonning amali, ilmiga qarab emas, mansabi, puliga qarab muomala qilayotganlar va puliga, lavozimiga ishonib „burnidan pastini ko'ra olma“yotlarning „mahsharda nima deb javob“ berishlarini, ya'ni adolatsizligining javobini qanday berishlarini, do'kondor-u amaldorlarning o'z foydalari uchun fuqaroni ko'p azoblab, ularga kuchi yetmagan kambag'al, bechoralarning „vaqti bemahallar“ yig'lashlarini ifodalarkan, tashxis, takrir, tazod, tavze' [4:8,18,20] san'atlaridan o'rinli foydalanadi:

*Bergay anga nim movut durobin,  
Mahsharda na degay javobin.  
Yetmay kuchi necha kambag'allar,  
Yig'lar edi vaqti bemahallar [5:47].*

Keyingi baytlarda azob-uqubatlardan charchagan, zamon nohaqliklaridan aziyat chekkan kambag'allarning Ollohga oh-u nolasi aks etgan bo'lib, ularni „nega g'inolardan qilma“ganligini, „xilqat (yaratilish)da bemahal“ qilganligini, „nega ... kambag'al qil“ib yaratganini so'rab, Yaratganga isyon etarkan, bu so'zlarni ochiq-

oshkor aytib, „nechasi ... kofir o‘ldi“ deya ta’riflaydi. Kundan kunga umri tugab borayotgan bo‘lsa ham insonlarning ko‘ngil ko‘zi hamon ochilmaganini, „go‘r“ga yaqinda kiraman deb emas, boqiy umr ko‘radigandek maishatga berilib yurishlarini, „o‘limni vaqti“ yetganda biror kimsaning „sim-u zar“ini hamroh qila olmaganini, ya’ni har kim qazosi kelgan vaqtda vafot etishini, uni hech narsa qutqara olmasligini, ustida kafandan boshqa narsa bo‘lmasligini, bu olamda qilgan yaxshilig-u yomonligining jazosi va mukofotini „hashr (yig‘ilish, to‘planish) kunda“ ko‘rishini, ajalning qachon kelishini hech kimsa bilmasligini, yomon inson vafot etsa, „munga har kishi rizolig‘ bermas“ligini ta’kidlaydi.

Asarning so‘nggi baytlarida shoir zamondoshlarining „benamoz“, „beajz“, „beniyoz“ yurishidan, tobora dinning zaiflashishidan xavotirlanayotganini yozarkan, she’rni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

*So‘z ko‘p desam man, ey dilogoh,*

*Qildim oxir qissani ko‘tah [5:49].*

Umuman, adib lirikasi mavzusi va mohiyati jihatidan rang-barang, zotan uning ayrim she’rlarida ishq-muhabbat kuylangan bo‘lsa, ayrimlarida fan-texnika, yana boshqa birida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy masalalari, yuqorida tanishib chiqqan asarimizda esa ilm-u hunardan ham, din-u e’tidoqdan ham mahrum, har ikkisini ham yaxshi anglab yetmagan insonlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, „Ibrat lirikasida til, badiiy tasvir vositalari e’tiborga sazovordir. Shoirning istioralari, sifatlash va o‘xshatishlari sodda va samimiydir“. [1:147]. Is’hoqxon ijodining barcha janrlarida o‘z davrida ro‘y berayotgan u yoki bu voqea-hodisalarni qalamga oladi, mavjud muammolarga yechim berishga harakat qiladi. „Shikoyati zamona“ asarida ham zamondoshlarining ilm-u ma’rifatdan, zamonaviy texnikalarning hayotga olib kiradigan yengilliklaridan qochishi – Olloh buyurganlaridan qochish ekanligini, ya’ni „Mezon uz-zamon“da keltirilganidek: „*Olloh taolo bizga yusr(ostonlik)ni xohlagon, usr(qiyinlik)ni xohlagon emas. „Yuridullohu bikum ul-yusro va la yuridu bikum ul-usro“ desa, biz o‘zumizni o‘zumiz qiyinlikka solgan“* [3:163], deya ta’riflaydi.

Is’hoqxon ijodining barcha janrlarida o‘z davrida ro‘y berayotgan u yoki bu voqea-hodisalarni qalamga oladi, mavjud muammolarga yechim berishga harakat

qiladi. Ammo odamlar tag zamirini, asl mohiyatini anglamay, o'zlariga oson deb bilgan taraflarigagina amal qilib yurganligini, shariat ahkomlarini ham bajarmay, bajarsa-da amal qilmayotganlarini ko'rsatib bergan. Mazkur she'r orqali shoir xalqni ilm olishga chorlash bilan bir qatorda u dunyo, oxirat, ezgu amallar qilish darkorligini, mazlumni xo'rlash emas, qo'llash kerakligini, zamon zayli bilan kimdir boyigan bo'lsa, u ham Yaratganning xohishi ekanligini hamda bu boyliklarni xayr-u ehson yo'lida, muhtoj kimsalarning hojatini chiqarish uchun sarf etish lozimligini uqtiradi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Dolimov U. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Dolimov. U., Jabborov N. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
3. Долимов У., Жабборов Н. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.
5. Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи Миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022.